

## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 06 | pp. 187-194 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA YO'NALISHLARI



**Jurayeva Sayyora Shuxrat qizi**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O'zbekiston

E-mail: [sayyorashuxratovna1397@gmail.com](mailto:sayyorashuxratovna1397@gmail.com)

I.f.n., dosent **Sh.A.Sultonov**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Iqtisodiyot raqobatbardoshligi barcha bo'g'inlari (makrodarajada) bir-biri bilan bog'liq. Ulardan birining rivojlanmaganligi boshqalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Adolatli raqobat shart-sharoitlarining mavjud emasligi va rivojlanmagan tovarlar bozori innovatsion mahsulotga bo'lgan barqaror talabni va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishga rag'batlarni ta'minlamaydi hamda milliy innovatsion tizimlar va infratuzilmalar, ilmiy-texnik ishlanmalarining tijoratlasmaganligi ularni pirovard iste'molchiga etib borishiga imkon bermaydi. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, mazmuni va mohiyati, sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, xizmatlarning tasnifiy belgilari bo'yicha turlari va tavsifi hamda xizmatlar sohasini samarali rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari tadqiq qilingan.

**Аннотация:** Все звенья экономической конкурентоспособности (на макроуровне) связаны друг с другом. Неразвитость одного из них отрицательно влияет на остальные. Отсутствие условий добросовестной конкуренции и неразвитость рынка товаров не создают стимулов для устойчивого спроса на инновационную продукцию и повышения качества выпускаемой продукции, а также отсутствие коммерциализации национальных инновационных систем и инфраструктур, научно-технических разработок. позволяет им дойти до конечного потребителя, не дает. В данной статье рассмотрены социально-экономическое значение, содержание и сущность развития сферы услуг, структурные изменения, реализуемые в отрасли, виды и описание услуг по классификационным обозначениям, а также особенности и принципы эффективного функционирования. исследуется развитие сферы услуг.

**Abstract:** All links of economic competitiveness (at the macro level) are related to each other. The underdevelopment of one of them has a negative effect on the others. The lack of conditions of fair competition and the underdeveloped market of goods do not provide incentives for the stable demand for innovative products and the improvement of the quality of manufactured products, and the lack of commercialization of national

innovative systems and infrastructures, scientific and technical developments allows them to reach the final consumer. does not give In this article, the socio-economic importance, content and essence of the development of the service sector, the structural changes implemented in the sector, the types and description of services according to the classification symbols, and the specific features and principles of the effective development of the service sector are researched.

**Tayanch soʻzlar:** servis iqtisodiyoti, xizmat koʻrsatish sohasi, omillar, korxonalar, xizmatlar tasnifi, xizmat koʻrsatish jarayoni, isteʼmolchilar, korxonalar, raqobat, investitsiya, bozor, talab, narx, innovatsiya.

**Ключевые слова:** экономика услуг, сфера услуг, факторы, предприятие, классификация услуг, процесс обслуживания, потребители, предприятие, конкуренция, инвестиции, рынок, спрос, цена, инновации.

**Keywords:** service economy, service industry, factors, enterprise, classification of services, service process, consumers, enterprise, competition, investment, market, demand, price, innovation.

**Kirish.** Xizmat koʻrsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi oʻz mazmuniga koʻra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bogʻliq boʻlgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasini taʼminlash boʻyicha xoʻjalik faoliyatining turli yoʻnalishlarini qamrab oladi. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha Harakatlar Strategiyasi qabul qilingan oʻrta muddatli dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsional oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Jahon iqtisodiyotida saqlanib qolayotgan murakkab vaziyat va dunyo bozorlarida yuzaga kelgan noqulay konʼyunkturaga qaramasdan, mamlakatimiz iqtisodiyoti soʻnggi yillarda ham yuqori surʼatlarda oʻsishda davom etdi.

Xususan, 2015 yil yakuni boʻyicha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmining real oʻsishi 2014 yilga nisbatan 8 foizni, 2016 yil yakuni 2015 yilga nisbatan 7,8 foizni, 2017 yil 5,3 va 2018 yilda esa 2017 yilga nisbatan 5,1 foizni tashkil etdi. Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2018 yilda Oʻzbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YalM) hajmi joriy narxlarda 407514,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 2017 yil bilan taqqoslaganda 5,1 foizga oʻsdi. YalM deflyatori indeksi 2017 yildagi narxlarga nisbatan 128,1 foizni tashkil etdi.

2017-2021 yillargamoʻljallangan Harakatlar Strategiyasida tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda mineral xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash boʻyicha umumiy qiymati qariyb 40 mlrd. dollarga teng boʻlgan 649

ta investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi tarmoq dasturlarini o'z vaqtida amalga oshirish belgilanmoqda<sup>1</sup>.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi ushbu vazifalarning amalga oshirilishida korxonalar muhim o'rin ajratilib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondiradilar.

Milliy iqtisodiyotning asosini korxonalar tashkil qiladi. Barcha inson uchun zarur bo'lgan moddiy, ijtimoiy, ma'naviy ne'matlar korxonalarda yaratiladi. Korxonalar, tarmoqlar va sohalarni tarkibi, mazmuni, miqyosi va rivojlanish darajasini belgilaydi. Ulardan tarmoq va hududiy birlashmalar tashkil topadi, shahar, tuman, viloyatlar tuziladi. Ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) soni 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 285,3 ming donani tashkil etganligini eslatib o'tamiz, shundan faoliyat yuritayotganlari 268,4 mingta yoki ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar umumiy sonining 94,1 foizini tashkil qiladi.

2018 yil yakunlariga ko'ra, 32,7 mingta korxonalar va tashkilot, shu jumladan, 31,7 mingta kichik biznes sub'ekti yangidan ro'yxatdan o'tkazilgan. Yangidan tuzilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (respublikada barcha ro'yxatdan o'tkazilganlarning 23,7 foizi), Toshkent (9,1 foizi), Farg'ona (8 foizi) va Samarqand (7,3 foizi) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Adabiyot sharhi:** Aksariyat adabiyotlarda korxonaning maqsadi to'g'risida so'z yuritilganda, bu masalaga bir tomonlama qarashlarni kuzatamiz. Ya'ni korxonaning maqsadi o'z faoliyatidan foyda (daromad) olish deb ta'kidlanadi. Masalan: A.A.Sergeev "korxonalar – foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat qilish uchun barpo etilgan mustaqil faoliyat yurituvchi sub'ekt" deb ta'riflaydi va "shakllari ko'pligiga qaramay korxonalar foyda olish maqsadi orqali bir xil tus oladi" deb ta'kidlaydi<sup>2</sup>. Aslida korxonalar o'z mahsulotlariga talabni qanchalik to'la qondirsa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Shu borada Amerika avtomobil qurilishi hamda "amaliyot falsafasini" yaratgan "fordizm" nazariyasi asoschisi Genri Fordni fikrlarini keltirish o'rinli deb hisoblaymiz.

Servis tizimida ko'rsatiladigan xizmatlar tavsifi va tasnifi, xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi, sohada personal faoliyati samaradorligini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) intensivligini ta'minlash, soha korxonalarida xizmatlar sifatini ularning iste'mol xususiyati bilan bog'liqligini o'rganish muhim hisoblanadi.

G.Ford tadbirkorlik faoliyati maqsadini jamiyatga xizmat qilishda deb tushungan va "faqat foyda olish uchun qilinadigan ish eng yuqori darajadagi xavf-xatarli faoliyatdir. Korxonaning maqsadi foyda olish yoki chayqovchilik emas, aksincha iste'mol uchun ishlab chiqarishdir. Bordi-yu xalq ishlab chiqaruvchi unga xizmat qilinmayotganligini sezib qolsa, uning kelajagi uzoqqa bormaydi"<sup>3</sup> deb ta'kidlagan. Taniqli tadbirkor "bin" firmasini boshlig'i L.P.Bin firmaning memorandumida, hamma ishchi va xizmatchilari bajarishi shart bo'lgan, quyidagi tezisni yozdirib, unga rioya qilishni qattiq nazorat qilgan:


<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi, 28.12.2017 yildagi F-5155-son <https://lex.uz/uz/docs/-3479164>

<sup>2</sup> Сергеев А.А. Экономические основы бизнес-планирования. - М.: ООО "Издательство юнити-ДАНА", 1999. С. 6.

<sup>3</sup> Форд Г. Моя жизнь, мои достижения. - М.: Финансы и статистика, 1989.-С.18.

"iste'molchi – bizning shohimiz: biz iste'molchiga bog'liqmiz, iste'molchi bizdan emas. Hech kim, hech qachon o'z iste'molchisi bilan tortishib, hech narsa yutmagan. Iste'molchi bizga o'z talabini keltiruvchilar. Bizning ishimiz ularni talabini o'zimiz uchun, hamda ular uchun ham foyda keltirish orqali qondirishdan iborat".

Korxonalarining faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlasa, butun iqtisodiyotning, jumladan, ularning o'zlarining ham ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va rentabellikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga keng imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblanadi. Balki haqiqatdan ham shundaydir. Biroq korxonalar, ayniqsa, davlatga tegishli bo'lgan korxonalar qanday ishlashi, uning jamiyatga keltiruvchi foydasi, rentabellik darajasi, xodimlarning bandligi qanday bo'lishi faqat korxonalariningina emas, davlatning ham ko'z oldida bo'lishi zarur. Xuddi shuning uchun ham davlat korxonalariga katta imkoniyatlar yaratib berish bilan birga ularni belgilangan tartibda nazorat qilib ham boradi. Davlat korxonalar "taqdiriga", ularning ishlab chiqarish faoliyati yakuniy natijalariga befarq qarab tura olmaydi. Bankrotga uchragan korxonalar, zarar keltiruvchi ishlab chiqarish, iqtisodiy nochorlik - bularning barchasi korxonalar jamoasi uchun ham, davlat uchun ham og'ir yuk hisoblanadi.



1-rasm. Xizmatlar sohasi 2024-yil 1-aprel holati<sup>4</sup>

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida barcha korxonalar ham raqobatchilikni engib, samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda

<sup>4</sup> <https://stat.uz/>

ololmaydi. Natijada minglab korxonalar tashkil qilinib, xo'jalik faoliyati doirasiga qo'shiladi va deyarli shunchasi turli sabablarga ko'ra tugatiladi. Shu sababli bankrotlik, korxonalarining tugatilishi bozor iqtisodiyot sharoitlarida odatiy hol bo'lib, bu ahvolga tushib qolishdan ehtiyot bo'lish kerak bo'lsada, lekin bundan fojea ham yasash kerak emas.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, mantiqiy-qiyosiy tahlil, tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar:** Xizmat ko'rsatish raqobatbardoshligini oshirish, xo'jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Raqobatbardoshlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida raqobatbardoshlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo'lmasligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo'qotish bilan izohlash mumkin.

Narx/tannarx	Unumdorlik, raqobatbardosh narxlar
Sifat	Mahsulot sifati va ishlab chiqarish standartlari, hom-ashyo standartlari
Vaqt	Yetkazib berish vaqti, yetkazib berishning tartibi
Moslashuvchanlik	Iste'molchilar talablariga mos mahsulotlar, moslashuvchan logistika
Xizmatlar	Iste'molchilarga ko'satilayotgan xizmatlar, etnik axloq qoidalari
Bozor munosabatlari	Bozor o'zgarishlariga moslasha olish qobiliyati, innovatsion savdo metodlaridan foydalanish
Inson kapitali	Xodimlar malakasi, menejment sifati
Tashkiliy tuzilma	Qaror qabul qilish mexanizmi, texnologiyalar darajasi, R&D xarajatlar

**2-rasm. Korxonaning ichki muhit komponentlari**

Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo'llar bilan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqarish va mehnatni mexanizasiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda kompleks ravishdagi mexanizasiyalash - tirish;
- asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;
- progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;
- xomashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;

- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlar va jihatlarga egadir. Shunga ko'ra, muayyan omillar ta'sirini ifodalovchi mazkur soha rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini nazariy jihatdan yoritib berish alohida ahamiyatga egadir.

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amri mahol. Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina xohish va istaklarning o'zigina etarli emas. Buning uchun birinchidan, fan-texnika taraqqiyotining ayni paytda zarur bo'lgan yo'nalishlarini izlash va aniqlash, ikkinchidan, pul mablag'larini va boshqa zarur bo'lgan resurslarni (investisiyalar) izlab topish, uchinchidan, zamonaviy ilmiy - texnikaviy ishmalarga ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalarni "bog'lash", to'rtinchidan, o'z ilmiy-texnikaviy maqsadlarining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi.

Yangi texnikalarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritishdan manfaatdorlik talab darajasida emas edi. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning xorijiy progressiv texnologiyalari "ekspluatatorlik belgisi" sifatida, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish esa ishsizlikning asosi sifatida qabul qilinardi. Xorij tajribalariga kapitalistik tajriba deb qaralardi hamda bu tajribalarning keng tarqalishiga yo'l qo'yilmadi edi.

Hozirgi vaqtda respublika hududida 316,0 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 209,5 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 66,1%ni tashkil etadi.<sup>5</sup>

Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilot sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 9,2%ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,2%ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 105244,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,9%ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlari hajmi 10,5 trln. so'mga, savdo xizmatlari (6,9 trln. so'm), moliyaviy xizmatlar (4,0 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (1,5 trln. so'm), ta'lim xizmatlari (1,1 trln. so'm) oshganligi kuzatildi.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitlarda chuqur sifat o'zgarishlari, tamoyillari yangi texnologiyalar va so'nggi avlod texnikasiga o'tish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida qayta

<sup>5</sup> Stat.uz

quollantirish zarur. Shu bilan bir qatorda olimlar, konstruktorlar, muhandis va ishchilarning ijodiy ruhda mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy manfaatdorlikni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yaponiya korxonalar va firmalarida ijodiy guruhlar, sifat guruhlari tashkil qilingan, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan universitetlar, ilmiy markaz va laboratoriyalar bilan aloqalar rivojlantirilmoqda. Yaponiyaning bugungi kunda robotlar hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarning boshqa turlarini yaratishda birinchi o'rinlarda turishi ham bejiz emas.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida mavjud ishlab chiqarish salohiyati asosiy va aylanma fondlar ishchi kuchidan tejamkorlik asosida iloji boricha unumliroq foydalanishni ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya'ni korxonaning bugungi egalaridan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

**Xulosa:** Bugungi bozor munosabatlari, ayniqsa raqobatchilik muhiti sharoitlarida korxonalar tijorat va ishlab chiqarish sirlarining oshkor qilinishi uning ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar iste'molchilarini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Servis sohasidagi korxonalarning o'ri va ahamiyatini aniqlash uchun servis iqtisodiyoti (xizmat ko'rsatish sohasi bevosita unga tegishli bo'lgan) va industrial iqtisodiyot o'rtasidagi asosiy farqlarini ajratish muhimdir.

*Birinchi*dan, servis iqtisodiyotida korxonalar, birinchi navbatda, mijozlarning o'ziga xos ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun samarani oshirishga qaratilgan. Industrial iqtisodiyotda esa korxonalar mahsulotlarini maksimal darajada ishlab chiqarishga intilishadi.

*Ikkinchi*dan, xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida foydalilik tushunchasi ham moddiy mahsulot, ham shunga mos keluvchi xizmatlarni o'z ichiga oladigan tizimlarning qanchalik mukammalligi, industrial iqtisodiyotda esa mahsulotlarning faqat moddiy jihatlari hisobga olinadi.

*Uchinchi*dan, servis iqtisodiyotida sifat deganda, ishlab chiqaruvchining xaridorlar bilan ularning ehtiyojlarini qondirish darajasini maksimalashtirish maqsadida munosabatlarni o'rnatishi hamda ularni doimiy kuzatib borishga bo'lgan qobiliyati tushuniladi. Industrial iqtisodiyotda sifat deganda, korxonaning o'z ishini yaxshi bajara olish qobiliyati nazarda tutiladi.

Shunday ekan, xizmat ko'rsatish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish omillari xizmat ko'rsatish korxonalari muvaffaqiyatini belgilab beruvchi asosiy omil bo'lib uni mijozning afzal ko'rgan tizimlari va rivojlanish tendensiyalarini tushunish qobiliyati hamda mijoz talab ehtiyojlarini iloji boricha yaxshiroq qondirishga qobilligi namoyon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi, 28.12.2017 yildagi F-5155-son <https://lex.uz/uz/docs/-3479164>
2. Ураков Ж.Р. Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятлари самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизми (Самарқанд вилояти мисолида) // Иқт. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: СамИСИ. 2011. 15-16 б.

3. Одегов Ю.Г., Абдурахманов К.Х., Котова Л.Р. Оценка эффективности работы с персоналом: методологический подход: Учебно-практическое пособие. – Москва: Издательство «Альфа-Пресс», 2011. – 752 с.
4. Парамонова Т.Н. Конкурентоспособность предприятия розничной торговли: учебное пособие. М.: КНОРУС. 2016. 120 с.
5. Мариншоев М.М. Методические основы оценки показателей услуг розничной торговли. // Синергия. 2017. № 5. С. 33-40.
6. Сергеев А.А. Экономические основы бизнес-планирования. - М.: ООО "Издательство юнити-ДАНА", 1999. С. 6

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

